"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti rektori
N.B.Sayfullayev ________
2025-yil "30" ________

**Aktyorlik san'ati: dramatik teatr va kino aktyorligi ta'lim yo'nalishiga ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga qabul qilish imtihoni**
**BAHOLASH MEZONI**

Talabgorning quyidagi amaliy ijrosi va nazariy bilimlari uchun umumiy maksimal 100 balgacha baholanadi. 67 va undan yuqori ball to'plagan talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

| № | Amaliy ijro | Maksimal ball |
|---|---|---|
| 1. | Talabgorning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati (insoniy jozibadorligi, hislati, tabiati, yoshi, tashqi ko'rinishi, yoqimtoyligi va ichki madaniyati, hayotiy tajribasi, tasavvurining rang-barangligi, ta'sirchanligi, hayotiy voqea va hodisalarga munosabati va ularni sahnada aks ettira olish salohiyati)<br>• masal (I.V.Krilov, S.Mixalkov, M.Xudoyqulov, A.Obidjon va h.k.); (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)<br>• monolog (biron bir pyesadan qahramon monologi); (bunda, har bir ijro uchun 0-10 balgacha)<br>• she'r; (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)<br>• qo'shiq; (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)<br>• raqs; (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)<br>• hayvonot olami (hayvonot xulq-atvori) - kuzatishlar asosida etyud; (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)<br>• yakka etyud – (yakka o'zi bilan sahnada sodir bo'layotgan so'zsiz voqea ko'rinish). (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha) | 40 |
| 2. | O'zbek raqs maktablarining harakatlaridan namunalar ijro etishi. Raqsda sahna madaniyati (bunda, har bir ijro uchun 0-20 balgacha) | 20 |
| 3. | Talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutq a'zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo'qligi) (bunda, har bir ijro uchun 0-20 balgacha) | 20 |

| | | |
|---|---|---|
| Og'zaki | | |
| 4. | Mamlakatimizda teatr va kino san'ati rivojlantirishga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi bo'yicha nazariy tuzilgan 2 ta savolga og'zaki javob uchun (bunda, har bir savolga berilgan javob uchun 0-10 balgacha) | 20 |
| **Jami** | | **100** |

**Qo'yilgan talablarga talabgorning javobini baholash mezoni**

| № | Baholash mezonlari | Ball |
|---|---|---|
| 1. | Tanlangan repertuar: masal, monolog, she'r, qo'shiq, raqs, hayvonot olami kuzatuvi, yakka etyud talab darajasida ijro etishida quyidagicha baholanadi;<br>Masal (muallif va hayvonlar xarakterini ochish);<br>Monolog (qahramon xarakterini ochish);<br>She'r (badiiy ifodaviylik);<br>Qo'shiq (musiqani eshita olishi, sluxi);<br>Raqs (musiqani eshita olishi, ritmga tusha olishi);<br>Hayvonot olami (Hayvonot xulq-atvori) - kuzatishlar asosida etyud;<br>Yakka etyud (Yakka o'zi bilan sahnada sodir bo'layotgan so'zsiz voqea ko'rinish). | 1-5<br>6-15<br>16-20<br>21-25<br>26-30<br>31-35<br>36-40 |
| 2. | Ijro etilgan raqsning talab bo'yicha to'g'ri tanlanganligi;<br>Ijro etilgan raqs mazmundorligi. Ijro etilgan raqs liboslar bilan ijro etilganligi;<br>Musiqani eshitishi, ritmga tushishi. Talabgorning plastikasi, mimikasi;<br>Ijro mahorati nafisligi; | 1-5<br>6-10<br>11-15<br>16-20 |
| 3. | Ovozning sog'lomligi va jarangdorligi;<br>Nutqiy ifodaviylik va ta'sirchanligi (nutqiy eshitish qobiliyatining mavjudligi);<br>Badiiy so'z ijrochiligi mahorati (she'r, g'azal, masal, monolog va nasriy – hajviy asar); | 1-10<br>11-15<br>15-20 |
| **Og'zaki** | | |
| 4. | Talabgorning teatr va kino san'ati haqida nazariy bilishi (kino, spektakllar, teatr va kino aktyorlari va rejissyorlari);<br>Talabgorning badiiy adabiyotlarni o'qiganligi (hikoya, roman, qissa, pyesa); | 1-10<br>11-20 |

**Qabul komissiyasi mas'ul kotibi** **S.Turatov**